


**TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT**
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

2025- yil 1- aprel holatiga ko‘ra

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha ma’lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama’lumotlar va tushunchalar

I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo‘jaliklari bundan mustasno) 42,4 mingtani tashkil etadi, shundan 36,2 mingtasi yoki 85,3 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2024- yilning shu davriga nisbatan korxonalar va tashkilotlar 98,0 foizni, jumladan kichik biznes va mikrofirmalarda – 97,3 foizni tashkil etdi.



**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy ta’rifi**

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 1- aprel holatiga

Yillar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			kichik biznes subyektlari
2025	42 405	36 596	36 169
2024	43 280	37 487	37 179
2023	44 876	39 005	38 665
2022	51 273	45 450	45 079
2021	47 424	41 749	41 315

Hududlar bo'yicha eng ko'p korxonalar va tashkilotlar Zangiota (jami faoliyat ko'rsatayotganlarning – 11,5 foiz), Qibray – (8,6 foiz), Toshkent – (7,0 foiz), Parkent – (5,9 foiz) tumanlarida va Chirchiq shahrida – (6,7 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Zangiota (– 12,4 foiz), Toshkent – (7,3 foiz), Qibray – (8,8 foiz) Parkent – (6,0 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	kichik biznes subyektlari
Oqqo'rg'on t.	1091	897	892
Ohangaron t.	1200	976	958
Bekobod t.	1210	977	969
Bo'stonliq t.	2320	1956	1928
Bo'ka t.	1206	990	988
Quyichirchiq t.	1302	1089	1079
Zangiota t.	4880	4517	4480
Yuqori Chirchiq t.	2158	1874	1851
Qibray t.	3642	3217	3176
Parkent t.	2492	2197	2183
Piskent t.	1027	829	817
O'rta Chirchiq t.	1897	1639	1623
Chinoz t.	1217	976	965
Yangiyo'l t.	1996	1692	1671
Toshkent t.	2961	2667	2647
Nurafshon sh.	1058	820	806
Olmaliq sh.	1764	1501	1477
Angren sh.	2358	2014	1972
Bekobod sh.	1451	1236	1223
Ohangaron sh.	935	824	804
Chirchiq sh.	2829	2469	2429
Yangiyo'l sh.	1411	1239	1231

**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy ta'rifi**

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi Savdo tarmog'iga to'g'ri kelmoqda, ya'ni ularning ulushi 2025-yil 1-aprel holatiga 33,1 foizni tashkil etdi.



Ikkinchi o'rinda Sanoat 14,5 foizni, uchinchi o'rinda Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 8,4 foizni tashkil qildi. Ushbu uch turdagi iqtisodiy faoliyat turlari, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 56,0 foizini tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3 660	3 614	3 582
Sanoat	6 314	6 303	6 147
Qurilish	2 478	2 461	2 438
Savdo	14 127	14 126	14 051

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy ta'rifi

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			kichik biznes subyektlari
Tashish va saqlash	1 337	1 334	1 307
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 960	2 947	2 930
Axborot va aloqa	649	606	600
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	892	752	735
Boshqa turlar	9 988	4 453	4 379

I. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra, 36,6 mingta faol tijorat korxonalaridan 29,8 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, 1- aprel holatiga


Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlarisoni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatani ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	29 813	81,5
Xususiy korxonalar	3 198	8,7
Oilaviy korxonalar	3 322	9,1
Aksiyadorlik jamiyati	46	0,1
Boshqalar	217	0,6

Shundan kelib chiqib, MCHJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

I. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot, 1- aprel holatiga (birlikda)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 1 897 ta korxonalaridan 452 tasi qo'shma korxonalar va 1 445 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy ta'rifi**

Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

2025- yilning 1- aprel holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 295 ta ga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 548 tadan 688 taga, (o'sish 140 taga), axborot va aloqa sohasida 20 tadan 77 taga (o'sish 57 taga) va qurilish sohasida 64 tadan 91 taga (o'sish 27 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Jami:	1 897	452	1 445
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	79	33	46
Sanoat	718	238	480
Qurilish	91	17	74
Savdo	688	88	600
Tashish va saqlash	33	6	27
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	37	8	29
Axborot va aloqa	77	3	74
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	9	6	3
Boshqa turlar	165	53	112

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, 1- aprel holatiga

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 775 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 40,8 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (9,5%), Turkiya (10,5 %), Qozog'iston (4,2 %) va Janubiy Koreya (3,4 %) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Jami:	1 897	452	1445
Xitoy Xalq Respublikasi	775	47	728
Turkiya Respublikasi	200	23	177

davomi

	Jami:	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	181	31	150
Qozog'iston Respublikasi	80	14	66
Janubiy Koreya Respublikasi	64	14	50
Tojikiston Respublikasi	32	1	31
Afg'oniston	30	1	29
Birlashgan Arab Amirligi	21	6	15
Amerika Qo'shma Shtatlari	17	4	13
Hindiston Respublikasi	16	3	13
Qirg'iz Respublikasi	15	3	12
Singapur Respublikasi	15	6	9
Belorussiya Respublikasi	13	3	10
Gonkong, Xitoy Ma'muriyatining Ixtisoslashgan hududi	13	3	10
Eron Islom Respublikasi	12	2	10
Germaniya Federativ Respublikasi	11	1	10
Boshqa davlatlar	402	290	112

**Korxonona va tashkilotlar
faoliyatining umumiy ta'rifi**

II. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri—real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibdavlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibdayuridikshaxslarningdavlatreestriga yangidankiritilgan yuridikshaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustavfondidachetelfuqarolarivafuqaroligibo'lmagan shaxslar ishtiroketgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasida 2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.